



Received: May 12, 2025  
Accepted: June 22, 2025  
Available online: June 25, 2025

## Rashida Gulimmatova

O'qituvchi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat uni-  
versiteti  
Urganch, O'zbekiston

## Rashida Gulimmatova

Teacher  
Urgench State University named after Abu Raykhan  
Beruni  
Urgench, Uzbekistan  
E-mail: gulimmatova97@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0000-4335-5125

### XORIJIY ILMIY MANBALARDA “JADIDLAR” VA “JADIDCHILIK HARAKATI” TALQINI

#### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Turkiston jadidchiligi harakati Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati sohasida muhim ilmiy tadqiqot obyekti sifatida katta e'tibor qozonmoqda. Xalqaro ilmiy manbalarda bu harakat turli nuqtai nazar va yondashuvlar asosida o'rganilib, uning milliy uyg'onish, madaniy modernizatsiya va siyosiy-faoliyatda tutgan o'rni haqidagi ilmiy qarashlar doimiy ravishda yangilanmoqda. Shu sababli, xorijiy ilmiy adabiyotlarda “Turkiston jadidchiligi harakati” va “jadidchilar” tushunchalarining talqini va tushunilishi bugungi zamon uchun katta ahamiyatga egaligi ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad – xorijiy ilmiy manbalarda jadidchilik harakatining madaniy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy jihatlarining yoritilish darajasini tizimli tahlil qilish, harakatning xalqaro ilmiy munozaradagi mavqeyini aniqlashdan iborat.

Maqolada bir qancha vazifalar bajariladi: xorijiy manbalardagi nazariy va tarixiy ma'lumotlarni yig'ish, jadidlar obrazining madaniy-siyosiy kontekstini yoritish, hamda ushbu talqinlarning o'ziga xos o'xshashliklari va farqlarini aniqlash. Shuningdek, turli mualliflarning jadidchilik harakati haqidagi ishlanmalarida uchraydigan o'xshashlik va tafovutlar aniqlanadi. Ularning har biri tarixiy jarayonlarni qanday konseptual model orqali izohlashi, jadidlarning maqsad va strategiyalarini qanday baholashi, ularning mintaqaviy va global tarixdagi o'rnini qay tarzda ko'rishi solishtiriladi.

Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil va

### INTERPRETATIONS OF THE “JADIDS” AND THE “JADID MOVEMENT” IN FOREIGN SCHOLARLY SOURCES

#### ABSTRACT

Today, the Turkestan Jadidism movement is receiving significant attention as an important subject of academic research in the field of Central Asian history and culture. In international scholarly sources, this movement is studied from various perspectives and approaches, with evolving academic views on its role in national awakening, cultural modernization, and political activity. Therefore, the interpretation and understanding of the concepts of the “Turkestan Jadidism movement” and the “Jadids” in foreign academic literature represent a highly relevant scholarly issue in the present day.

The main objective of this study is to systematically analyze the social, cultural, and political aspects of the Jadidism movement as presented in foreign academic sources and to determine its place in international scholarly discourse. The research involves several tasks: collecting theoretical and historical data from foreign sources, examining the cultural and political context of the Jadids' image, and identifying the unique features and differences in these interpretations.

The study employs historical-analytical, comparative, content analysis, and textual methods to thoroughly examine materials from foreign literature. The results indicate that in international academic circles, the Jadidism movement is interpreted not only as a process of national awakening and cultural modernization but also as an essential component of political activism. The representation of the “Jadids” in

matnshunoslik metodlari qo'llanilib, xorijiy manbalardagi materiallar atroficha o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilm-fan sohasida jadidchilik harakati nafaqat milliy uyg'onish va madaniy modernizatsiya jarayoni sifatida, balki siyosiy faollikning muhim qismi sifatida ham keng talqin etiladi. "Jadidlar" obrazining global ilmiy maydondagi yoritilishi ularning Turkiston xalqlari tarixidagi o'rni va ahamiyatini yuqori darajada baholashga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy ilmiy manbalarda "Turkiston jadidchiligi harakati" va "jadidchilar" tushunchalarining tahlili ushbu tarixiy harakatni global madaniy va siyosiy kontekstda yanada kengroq anglashga, milliy tarix va madaniyatga oid yangi ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik harakati, Turkiston, xorijiy ilmiy manbalar, milliy uyg'onish, madaniy modernizatsiya, siyosiy faollik, ilmiy talqin, tarixiy-tahliliy metod, global, jadidlar obrazi.

the global academic sphere enables a deeper appreciation of their role and significance in the history of the peoples of Turkestan.

In conclusion, the comprehensive analysis of the concepts of the "Turkestan Jadidism movement" and the "Jadids" in foreign academic literature contributes to a broader understanding of this historical movement within a global cultural and political context and helps develop new scholarly perspectives on national history and culture.

**Key words:** Jadidism movement, Turkestan, foreign academic sources, national awakening, cultural modernization, political activism, academic interpretation, historical-analytical method, global, image of the Jadids.

## KIRISH

Bugungi tarixiy tafakkurda XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida milliy uyg'onishning fundamental asosi sifatida baholanmoqda. Jadidchilik xalqni jaholat, ijtimoiy-siyosiy qoloqlik va mustamlaka zulmidan qutqarish, uni ilm, tafakkur va taraqqiyot yo'liga yetaklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan zamonaviy uyg'onish harakati bo'lib, bu harakat vakillari o'z davrining ilg'or ziyolilari sifatida adabiy jarayonlarda faol ishtirok etganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan maktab islohotlari, matbuot orqali ommaning ongi va tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan ma'rifatparvarlik faoliyati, zamonaviy adabiyot va sahna orqali g'oya singdirish kabi tashabbuslar jadidchilik harakatining ko'lamini ancha kengaytirgan.

O'z mustamlaka o'tmishini xolis yoritishga qaratilgan bugungi tarixiy izlanishlar, ayniqsa, mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasida ilgari surilgan milliy xotirani tiklash, tarixiy adolatni qaror toptirish va jadidlar merosini chuqur o'rganish tashabbuslari bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Bu jarayonda jadidchilik harakati o'tmishdagi "reaksion oqim" degan sovetcha yondashuvlardan holi, ob'ektiv tarixiy va g'oyaviy yondashuv asosida baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida jadidlar faoliyati bugungi taraqqiyot strategiyasi — ya'ni Yangi O'zbekiston g'oyaviy-axloqiy tamoyillari bilan uzviy bog'langan holda talqin qilinmoqda. Prezident jadidlar merosini nafaqat tarixiy, balki zamonaviy davlat va jamiyat qurilishining ideallariga uyg'un yondashuv sifatida e'tirof etgan holda, quyidagicha ta'kidlaydi: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning

merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. ... Xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" [Mirziyoyev, 2023]. Shuningdek, Prezidentning nutqlarida jadidlar faoliyatiga faqat ma'rifiy oqim sifatida, balki o'z davrining nohaq siyosiy tuzumiga qarshi qaratilgan ma'rifatli kurash sifatida qaraladi. Ularning tarixiy jasorati siyosiy mustabidlikka qarshi uyg'onish to'lqinining ifodasi sifatida qayta baholanmoqda: "Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlari to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi" [Shavkat Mirziyoyev. "Jadidlar millat yuragida yashamoqda" nomli nutqidan, 2023]. Shu bilan birga, so'nggi yillarda davlat miqyosida jadidlar merosini tizimli o'rganishga qaratilgan institutsional chora-tadbirlar boshlangan. 2024-yil 30-mayda qabul qilingan PQ-201-sonli qaror asosida Buxoroda "Jadidlar merosi" davlat muzeyining tashkil etilishi, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa jadidlarning ko'p jildli asarlarini nashrga tayyorlash, xorijiy arxivlarda ularning faoliyatini o'rganish bo'yicha xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilishi belgilandi. Bu tashabbuslar nafaqat tarixiy xotirani jonlantirish, balki jadidchilik harakatini xalqaro ilmiy muomalaga olib chiqish, uni global modernizatsiya jarayonlari doirasida talqin qilish uchun zarur asosni yaratmoqda.

Mazkur maqolada ana shu dolzarb nuqtai nazardan kelib chiqib, xorijiy manbalarda jadidchilik harakati qanday talqin etilayotgani, g'arbiy va sharqiy tadqiqotchilar ushbu harakatni qanday ideologik, tarixiy va metodologik mezonlar asosida baholayotganiga ilmiy tahlil asosida yondashiladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda Adeeb Khalid, Hisao Komatsu, Ingeborg Baldauf kabi olimlarning asarlari orqali shakllangan yondashuvlar modernizm, postkolonializm, musulmon intellektualizmi, islomiy islohotlar singari ilmiy-nazariy yo'nalishlar doirasida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xorijiy yondashuvlarda uchraydigan umumlashtirish, mahalliy o'ziga xosliklarni inkor etish, hamda jadidlarni faqat rus imperiyasiga reaksiya sifatida baholashga oid metodologik noaniqliklar ham muhokama qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — xorijiy yondashuvlardagi farqlarni, ularning ilmiy asoslarini, tarixiy xotira va madaniy o'zlikka ta'sirini aniqlashdan iborat.

Jadidchilik harakati faqat Turkiston yoxud O'zbekiston hududida emas, balki butun Markaziy Osiyoda muhim rol o'ynagan siyosiy harakat edi. Bu madaniy-ma'rifiy harakatning ahamiyati faqat mahalliy doirada emas, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan va jahondagi ko'plab ilmiy markazlarda bu harakatga nisbatan qiziqish uyg'ongan. Jumladan, xorijda jadidchilik masalasi kolonializm, modernizm, diniy islohot va milliy o'zlikni anglash doirasida o'rganilgan. Ushbu mavzu bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish jarayonida aniqlanishicha, xorijiy olimlar orasida jadidchilik harakati turli mezonlar asosida talqin qilingan. Masalan, AQShdagi Kartelon kollejining tarix bo'limida Osiyo tadqiqotlari bo'yicha professor Adeeb Khalid o'zining "Musulmon madaniy islohotining siyosati" - "The Politics of Muslim Cultural Reform" asarida jadidchilikni musulmon dunyosidagi ma'rifiy modernizm

ifodasi sifatida baholaydi [Khalid, 1998; 56]. U Turkiston jadidchilarining islohiy qarashlarini zamonaviy siyosiy va madaniy jihatdan talqin etadi, hamda “jadid” deb ataladigan shaxslarga quyidagicha ta’rif bergan. Uning nazdida, musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar “jadidlar” deb ataladi.

Humboldt universiteti (Berlin) Sharqshunoslik va Afrika tadqiqotlari institutining Markaziy Osiyo bo‘limi professori, Ingeborg Baldauf jadidchilikni rus mustamlakachiligi ta’sirida shakllangan intellektual harakat sifatida baholaydi. Uning fikricha, jadidchilik faqat islohot emas, balki mahalliy intellektual qarshilikning ifodasidir [Baldauf, 2001; 5].

Ilmiy kuzatishlar natijasida aniqlangan muammolardan biri shundaki, xorijiy manbalarda jadidchilik harakati ko‘pincha umumiy modernizatsiya jarayoni bilan bog‘lab talqin qilinadi, biroq uning milliy, madaniy, diniy o‘ziga xos jihatlari yetarlicha yoritilmaydi. Jadidlarning turlicha ijtimoiy maqomi, ularning ichki tafakkuri, mintaqaviy farqlar, mahalliy sharoitda ilgari surgan tashabbuslari aksariyat hollarda umumlashtirilgan holda beriladi degan mulohaza bu boradagi qarashlar xilma-xilligini tasdiqlaydi [Louw, 2013; 18]. Bu esa, mavzuning murakkabligini, ko‘p qirrali xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldirish xavfini tug‘diradi. Ayrim xorijiy manbalarda jadidlar faoliyatining faqat ruslar ta’sirida yuzaga kelgan passiv reaksiyon hodisa sifatida baholanishi, ularning asl ma’rifiy, madaniy va diniy g‘oyalarini yetarlicha ochib bermaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi — xorij adabiyotshunosligida jadidlar va jadidchilik harakati qanday talqin etilganini tahlil qilish, ularning farqli jihatlari, metodologik asoslarini va yondashuvlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, xorijda mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlarning milliy adabiyotshunoslikka qo‘shgan hissasi ular bilan yuzaga keladigan metodologik tafovutlar, muammolar tahlil qilinadi. Mazkur maqolada ushbu masalaga xorijliklarning tarixiy, siyosiy va ideologik jihatdan qanday yondoshganligi o‘rganiladi.

### **TADQIQOT METODLARI**

Yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar, mustaqillik yillaridagi mafkuraviy erkinlik adabiyotshunoslik fanining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ilgari mafkuraviy cheklovlar sababli biryozlama talqin qilingan adabiy hodisalar, siymolar bugun yangicha, xolis mezonlar asosida qayta o‘rganilmoqda. 20-yillarda yashab ijod qilgan o‘zbek adabiyotining erkin siymolari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriylarning adabiy-estetik merosi ilgari e’tiborsiz qolgan edi. Zamonaviy yondashuv bu davrning murakkab adabiy jarayonlarini adabiy-tarixiy manzaraning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qilmoqda. 2024-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan “Jadid” gazetasi nashr etila boshlandi. Gazeta xalqimizning ma’rifatparvarlik an’analari, jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan bog‘liq madaniy-ma’rifiy merosni tiklash, maqsadida tashkil etildi.

Adabiy qadriyatlar siyosiy mafkura ta’sirida qadrsizlantirilgan bo‘lsa-da, bu-

gun ularni tiklash imkoniyati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, adabiyotimiz tarixini o'rganish, shakllangan badiiy tafakkur namunalari tahlil qilish, ijodkorlar shaxsiyatini chuqur ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Davrning dialektik qonuniyatlari adabiyotshunoslik oldidagi ilmiy-ijodiy mas'uliyatni oshirib, har bir ijodkorga individual yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Bugun M. Behbudiy, A. Qodiriy, H. H. Niyoziy, A. Fitrat, A. Cho'lponlar qatorida faoliyati kam o'rganilgan ijodkorlarga ham e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv adabiy jarayonni faqat siyosiy yoki mafkuraviy mezonlar bilan emas, balki tarixiy-adabiy haqiqat nuqtai nazaridan tahlil etish imkonini beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, jadidlar va jadidchilik harakati haqida zaminimizda va xorijda ko'plab asarlar yozilgan bo'lsada, ularning barida jadidchilik harakati to'g'ri talqin qilinyapti deb bo'lmaydi.

Bu harakat ayrim tadqiqotchilar tomonidan faqat ma'rifiy islohot sifatida talqin qilingan bo'lsa, boshqalar uni milliy ozodlik harakati, ba'zilar siyosiy radikalizm sifatida baholaydi. Edvard Allworth va Ingeborg Baldauf o'z tadqiqotlarida jadidlarni progressiv va xalqparvar islohotchilar sifatida ko'rsatadi, biroq sovet davridagi ayrim tarixshunoslar ularni "burjua millatchilari" deb baholagan [Allworth, 1977; 85]. Abdurauf Fitratning "Shaytonning Tangriga isyoni" (1924) tarixiy dramasi o'z vaqtida "xudosizlik adabiyoti" sifatida baholangan va bu sovet mafkurasining diniy qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatni aks ettiradi. Fitrat bu asar orqali inson, gunoh, ozodlik, qarshilik, ilohiyot kabi falsafiy mavzularni sahnaga olib chiqadi. Shunga qaramay, bu asar o'z vaqtida adabiyotshunos va dinshunoslar tomonidan e'tibor topmagan. "Shaytonning tangriga isyoni" dramasi o'zbek ateist adabiyoti mezonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil bahoni berishga to'g'ri keladi: asarning adabiy falsafiy darajasi qanchalik ulug' bo'lsa, o'zbek badiiy tafakkuri jarayoniga ta'siri shunchalik kam bo'ldi" deb yozgan edi professor Ingeborg Baldauf [Baldauf, 2001; 58]. Asarning mazmuni, nomlanishi va g'oyasi unga mafkuraviy tamg'alar (masalan, "xudosizlik adabiyoti") yopishtirishga asos bo'lgan.

1930-yillardan boshlab Sobiq Ittifoqida milliy harakat "millatchilik", "reaksionerlik", "panturkizm" sifatida talqin qilina boshlandi. M. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy — qatag'on qilinib, "xalq dushmani" sifatida o'lim jazosiga hukm etildi. "Jadidlar harakatining mohiyatini chuqur anglamagan sovet mafkurasini ularni..., "burjua millatchilari" deb atadi va jamiyatdan yulib tashlashga urindi." [Karimov, 1991; 32]. Ko'plab jadidlarning asarlari kutubxonalardan olib tashlandi, chop etilishi taqiqlandi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani senzura uchrad.

Jadidlarning qatag'on qilinishi o'zbek adabiyotshunosligida chuqur bo'shliq hosil qildi. Ularning nomi 1980-yillarning oxirlarida tilga olinib, faoliyati bo'yicha ilmiy-ijodiy ishlar boshlandi. "Jadidlarning islohoti sovet mafkurasiga uchun xavfli emas edi, balki kerakli edi. Sovetlar ularning ilg'or g'oyalarini emas, mustaqil fikrini yo'q qilishga urinib, o'zbek jamiyatini bir necha o'n yillik ortga surdi" [Allworth, 1990; 65].

Mustaqillikdan keyin jadidlar haqida ijobiy asarlar ko'paya bordi, lekin ayrim ishlarda ular faqat "qahramon" sifatida ideallashtirilib, ularning murakkab tafakkuri,

ichki qarama-qarshiliklari e'tibordan chetda qola boshladi. Masalan, "Shaytonning Tangriga isyoni" (A.Fitrat) dramasi ayrim manbalarda diniy-mistik allegorik asar sifatida ko'rilsa, ayrim hollarda uni siyosiy isyon sifatida talqin qildilar. Bu xulosa fikrlar turli talqinlarga sabab bo'lishi tabiiy. "Aslini olganda jadidlar o'z ichida bir xilda emas. Ular bir xil mafkura asosida birlashmagan: Fitrat falsafiy-islomiy yo'nalishda, Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik-islohotchi sifatida, Cho'lpon esa adabiy-siyosiy yo'nalishda faoliyat yuritgan. Shuning uchun ham, ularni bir xil yondashuv bilan talqin qilish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Bu tafovutlarni hisobga olmaslik ilmiy adabiyotlarda noto'g'ri generalizatsiyaga olib kelgan" deb yozgan edi Islohot va jadidizm [Baldauf, 1991; 15].

Ayni paytda o'zbek adabiyotshunosligida jadid adabiyoti va 20–30-yillar adabiy jarayonini yangicha talqin qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu adabiy jarayon tarixiy haqiqatni tiklash, adabiy merosni xalq ongiga olib kirish, milliy o'zlikni anglash yo'lida muhim qadamlardan biridir. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy izlanishning asosiy tayanch nuqtasi bo'lib, obyekt, predmeti va vazifalariga muvofiq belgilanishi lozim. Jadidlar va jadidchilik harakatining xorijda o'rganilishi masalasining tadqiq etilishi murakkab, ko'p qirrali bo'lgani bois maqolada zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

### **NATIJALAR VA MUNOZARA**

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ijtimoiy-siyosiy javob sifatida yuzaga kelgan muhim harakatlardan biri hisoblanganligi bois, uning bosh maqsadi – ta'lim tizimini isloh qilish, jamiyatda yangilanish jarayonlarini boshlab berish va milliy ozodlik g'oyalarini shakllantirish edi. Jadidchilik Turkiston va Markaziy Osiyodagi o'ziga xos siyosiy-madaniy muhit ta'sirida shakllangan bo'lib, u bugun ham o'rganilayotgan sohalaridan biridir.

Bu o'rinda Behbudiyning "Sayohat xotiralari" asarini alohida ta'kidlash joiz. Xotiralar 1914 yilning kuzidan yil oxirigacha yetti qismga bo'linib, "Oyna" jurnalida chop etilgan [Avazov, 1995; 18]. Behbudiyning fikricha musulmon xalqlarning nochor ahvolga tushib qolishlarida o'zlarining ham aybi bor – ular mustamlakachi hukumatning "bilim olinglar" taklifini rad etadilar [Avazov, 1995; 27]. Bu fikrlar jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari – xalqni uyg'otish, zamonaviy bilimlarni egallash, ma'rifatparvarlik g'oyalari, ya'ni ruhini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bu jihatdan Behbudiyning ijodi va amaliy faoliyati mazkur harakatning yorqin misollaridan biridir.

Jadidlar "Tarbiya", "ma'rifat", "hurlik", "millat" kabi tushunchalarni talqin qilib, buni xalq ommasiga tushunarli tilda yetkazishga intildilar. Ayniqsa, mahalliy ziyolilar o'rtasida siyosiy faollikning ortishi, "Ittifoqi musulmonin", "Shuroi Ulamo", "Turon" kabi siyosiy va ijtimoiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, jadidchilik harakatining mafkuraviy asoslari tobora chuqurlashib borayotganidan dalolat berardi. Ular erkin matbuot orqali tsenzura va zulmga qarshi kurashdilar, turli risolalar, gazeta va jurnallar chiqarib, ommani siyosiy hayotda faol ishtirok etishga da'vat qildilar [Ashirov, 2023; 25].

### Jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganish tarixiga bir nazar

“Jadid” soʻzini isteʼmolga ilk bor kim, qachon va qayerda kiritganini aniq belgilash juda qiyin. Biroq, professor Begali Qosimovning fikriga koʻra bu atama Ismoilbek tomonidan 1884-yildan qoʻllangan va “Tarjimon” gazetasi orqali Sharq-u Gʻarbning juda koʻp oʻlkalariga yoyila boshlagan boʻlsa-da, bizga 90-yillarda kirib keldi [Qosimov, 2002; 28]. «Jadid» atamasi tarixda ilk bor Turkiyada, Sulton III Selim hukmronligi davrida (1789–1807) qoʻllanila boshlagan. Avstriyaga elchi sifatida yuborilgan Abubakr Ratib Afandi u yerda koʻrgan boshqaruv tizimi haqida shohga maʼlumot berar ekan, bu yangicha islohotlarni «Nizomi jadid», yaʼni «Yangi tizim» deb atagan. Keyinchalik, 1789 yildagi Fransuz inqilobidan soʻng Evropada paydo boʻlgan yangi ijtimoiy-siyosiy tartib ham «Fransiya nizomi jadidi» sifatida tilga olinadigan boʻldi. Bu ibora dastlab faqat harbiy islohotlar bilan bogʻliq boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan kengroq maʼno kasb etdi — ilm-fan, taʼlim, sanoat va qishloq xoʻjaligini zamonaviylashtirishga qaratilgan harakat sifatida tushunildi bordi. Aslida esa «jadid» va «qadim» oʻrtasidagi tortishuv bugungi kunda ham oʻz mohiyatini yoʻqotmagan — bu yangilik va eskilik, taraqqiyot va turgʻunlik oʻrtasidagi doimiy toʻqnashuvdir. “Yunonlar ilgari Suqrotni ham jadidchilik bilan ayblab, uni qatl qilgan edilar”, - deb yozgan edi Ismoilbek “Qadimchilik va jadidchilik” [“Tarjimon”, 1909-yil, 19-son] maqolasida. Abdulla Avloniy bundan yuz yil avvalyoq dunyodagi taraqqiy etgan millatlar urushlarni sanoat va tijorat maydonidagi raqobatga aylantirganini taʼkidlagan. Fitrat va Choʻlpon esa ularni “madaniyat vahshiylari” deb ataydilar. Yaʼni, kurash shaklan oʻzgargan boʻlsa-da, mazmun jihatdan oʻzgarmagan — eski va yangi oʻrtasidagi qarama-qarshilik hali ham davom etmoqda. Jadidlar zamonaviy maktab ochish, fan-texnikaga eʼtibor qaratish, matbuot va teatrni rivojlantirish orqali xalq ongini uygʻotishga harakat qildilar. Biroq ular qadimchilarning tanqidiga uchradilar: “samovarda suv qaynashi sehr, nosharʼiy”, “jomeʼda sham oʻrniga elektr yoqish gunoh”, “gazeta va teatr shaytoniy ish”, degan qarashlar ayni oʻsha paytlarda keng tarqalgan edi [Qosimov, 2002; 17]. Begali Qosimov fikrlaridan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, bu jadidlar oʻrtasidagi fikriy va madaniy kurashning aniq namoyon boʻlishidir. Olimning fikriga koʻra, jadidshunoslik bosib oʻtgan yoʻlni shartli ravishda quyidagi 6 bosqichga boʻlish mumkin:

Bosqich	Yillar	Tavsifi
1-bosqich	1900–1925	Jadidlar faoliyatining eng faol davri. Taʼlim, matbuot, teatr va madaniyat sohalarida katta siljishlar boʻladi. Ilmiy tadqiqotlar deyarli yoʻq.
2-bosqich	1925–1938	Jadidlar dastlab ijobiy talqin qilinadi, soʻng siyosiy ayblovlar ostida tazyiqqa uchraydi. S.Ayniy va F.Xoʻjayev asarlari yoziladi.
3-bosqich	1938–1956	Qatagʻon yillari. Jadidlar “xalq dushmani” deb eʼlon qilinadi. Ularning ismlari, merosi butunlay rad etiladi va unutiladi.
4-bosqich	1956–1985	“Tiniqish” davri. Jadidlar haqida maʼlumotlar cheklangan doirada, siyosiy neytrallikda yoritiladi. Toʻliq tahliliy yondashuv mavjud emas.
5-bosqich	1985–1991	“Qayta qurish” yillari. Jadidlar merosi bilan qayta qiziqish paydo boʻladi, ilk ilmiy baholashlarga urinishlar boshlanadi.

6-bosqich	1991–h.v.	Mustaqillik davri. Jadidlar milliy uygʻonish timsoli sifatida qayta baholanadi. Ilmiy izlanishlar kuchayadi, monografiyalar, maqolalar yaratiladi.
-----------	-----------	--

Taʼkidlash joizki, 1920-yillarda boshlangan ilk izlanishlar, sovet mafkurasi taʼsirida olib borilgan boʻlib, ularning asosiy maqsadi jadidlar harakatini inkor etish, ularni burjuaziya manfaatini ifodalovchi reaksiya kuchlar sifatida talqin etish edi. S.Ayniy va F.Xoʻjayev asarlarida bu siyosiy ruh yaqqol seziladi. Ayniqsa, S. Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixiga materiallar” asarida jadidlar maʼrifatparvarlik harakatidan koʻra, sinfiy qarama-qarshiliklar kontekstida baholanadi [Ayniy, 1920]. Shu tarzda, dastlabki bosqichda jadidchilik tarixini oʻrganish biryoqlama, gʻoyaviy cheklolvar doirasida olib borilgan.

1930-yillardan boshlab bu harakatga nisbatan sovet mafkurasi mutlaqo keskin pozitsiyani egallaydi. 1937–1938-yillardagi mashʼum qatagʻonchilik natijasida koʻplab jadid ziyolilari “xalq dushmani” tamgʻasi bilan qatl etiladi yoki qamoqqa tashlanadi. Bu ularning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyatining uzoq yillarga unutilishiga sabab boʻladi. 1938–1956-yillar oraligʻi jadidshunoslik tarixida “sukut yillari” sifatida tilga olinadi [Qosimov, 2002].

1956-yildan boshlab ... “tiniqish davri”da jadidlarga nisbatan yondashuv asta-sekin yumshay boshlaydi. Bu davrda badiiy ijod doirasida ayrim jadidlarning merosi tor doirada oʻrganila borildi, ular faoliyati va gʻoyalari siyosiy yoki ijtimoiy kontekstdan uzilgan holda talqin qilindi. “Bu davrda ijtimoiy-madaniy hayotdagi oʻzgarishlar tufayli ... oʻtmish madaniy merosni oʻrganish asnosida Behbudiya qaytish koʻzga tashlanadi. [Avazov, 1995]. Avazovning fikriga koʻra, siyosat moʻtadil chogʻlarda jadidlar ijodi oʻrganilishiga urgʻu berilgan boʻlsa, aksincha totalitar tuzum mafkurasi ot choptirgan kezlarda, ular ijodini baholash, ulardan xato va kamchiliklar izlash ustuvorlik qilganini payqash mumkin. Teatrshunos olim M. Rahmonov “Oʻzbek teatri tarixi” asarida Behbudiyning “Padarkush” dramasi qator maʼlumotlarni keltirib oʻtgan. Biroq, olimning asarga rasmiy siyosatdan kelib chiqqan holda yondoshganini koʻrish mumkin. “Bu teatr oʻzining tor sinfiy manfaatlari va mehnatkash xalq mafkurasiga yot boʻlganidan uzoq umr koʻrmadi, ulugʻ oktabr sotsialistik revolyutsiyasidan qaqshatgich zarba yeb, oʻzbek burjuaziyasidek voyaga yetolmay hazon boʻldi” [Rahmonov, 1968]. Asarda Turkistonda, hatto qoʻshni davlatlarda eng koʻp qoʻyilgan asar “Padarkush” ekanligi toʻgʻrisida aytib oʻtilmagan. Biroq professor N. Gʻafforiy “Behbudiyning Xoʻjandlik muhihlari” maqolasida yozadi: “Padarkush dramasi faqat Toshkent va Samarqandda emas, balki Xoʻjandda ham muvaffaqiyatli qoʻyilgan. Men bu haqda maʼlumot topganman – bu Xoʻjandda spektakl qoʻyilishi borasidagi afisha-eʼlon” [Jadid.uz gazetasi. 16.07.2025].

Mustaqillik davrida tarixiy adolat tiklana boshlanadi, jadidlar faoliyati milliy uygʻonish, istiqlol gʻoyasi bilan uygʻun holda qayta baholanishga kirishiladi. 1995-yil fevralda Fransiyaning Oʻzbekistondagi elchixonasi qoshida Markaziy Osiyoni oʻrganish ilmiy tadqiqot institutida jadidchilik harakati mavzusiga bagʻishlangan simpozium boʻlib oʻtdi. Simpoziumda dunyoning turli mamlakatlaridan taniqli

jadidshunoslar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etganlar, ma'ruza matnlari Fransiyaning "Markaziy Osiyoda musulmon islohotchiligi, rus dunyosi daftarlari" (Le reformisme musulman en Asie Cehtrale, Cahiers du Monde Russe) nomli ilmiy jurnalining 1996-yil 37-jild, yanvar-iyun oylarida e'lon qilingan [Qosimov B., 2002]. Jurnalda Stefan A. Dudoignon, Maykl Kemper, Thierry Zarcone, Yahyo Abdullin, Rafiq Mouhammetchine, Fransua Jorjyon va o'zbek jadidshunoslaridan Begali Qosimov Sherali Turdiyevlarning jadidlar haqidagi maqolalari chop etilgan.

Simpozium va uning natijalari jadidchilik harakati bo'yicha xorijiy ilmiy qarashlarning shakllanishi, g'oyaviy asoslari va konseptual yondashuvlarini tizimli tahlil qilish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Stefan Dudoignon, Maykl Kemper, Tyerri Zarkon, Yahyo Abdullin singari olimlarning maqolalari xorijda jadidchilikni faqat mahalliy madaniy hodisa sifatida emas, balki Islom olamidagi modernizm harakatlari sifatida baholashga asos yaratdi. Ular jadidchilikni islohotchilik, milliy uyg'onish va diniy-modernistik tafakkurning tutashgan nuqtasi sifatida tahlil qilishdi. Ular o'rgangan manbalar, tahlilga tortilgan shaxslar faoliyati, metodologik yondashuvlar O'zbekiston va Markaziy Osiyoda olib borilayotgan tadqiqotlar bilan samarali ilmiy muloqot imkonini yaratdi. Germaniyada Ingeborg Baldauf, Fransiya-da Stephane Dudoignon, Amerikada Adeeb Khalid, Allen Frank, Edward Allworth, Edward Lazzerini, Yaponiyada Hisao Komatsu kabi olimlar nashr etgan tadqiqotlar jadidchilik harakatini turli nazariy paradigmalar asosida qayta baholashga undaydi. 1996-yilda Hisao Komatsu chop etgan "Inqilobchi O'rta Osiyo: bir jadidning qiyo-fasi" asarida Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyatini kompleks o'rganib, jadidchilikni avvalo mustamlaka qarshisidagi intellektual va mafkuraviy qarshilik sifatida tavsiflaydi [Komatsu, 1996]. Komatsu Fitrat shaxsiyati orqali jadidlarning zamon bilan yuzma-yuz kelishgan ichki tafakkur jarayonlarini, islohiy faoliyati va modernistik yondashuvlarini tahlil qiladi. Bu yondashuvlar o'zbek jadidchiligini ko'proq milliy uyg'onish, modernizm, islohotchilik, mustamlakachilik va diniy tafakkur kontekstida anglashga xizmat qildi. Ayniqsa, Danielle Rossning 2020-yilda chop etilgan "Tatar Empire: Islam, Russia, and the Making of Modern Muslim Subject" asari orqali Volga Tatar jadidchiligi bilan Turkiston jadidchiligi o'rtasidagi g'oyaviy va amaliy aloqalar yangi tarixiy-materialistik asosda tahlil etiladi [Ross, 2020]. Ta'kidlash joizki, xorijiy ilmiy manbalarda jadidchilik harakati talqini ko'p hollarda mahalliy ilmiy an'analar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Masalan, B. Qosimov, N. Karimov, O. Sharafiddinov, X. Ziyoev kabi olimlar jadidlarni milliy uyg'onish g'oyasining tashuvchilari sifatida talqin etgan bo'lsalar, xorij adabiyotlarida ular ko'proq musulmon modernizmi, diniy-madaniy islohot, postsovet identiteti va modern davlat qurilishi jarayonidagi faollari sifatida qaralgan. Natijada, ayni paytda jadidchilikka oid tadqiqotlar tarix, adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va dinshunoslik kabi ilmiy yo'nalishlarda olib borilmoqda.

### **Mahmudxo'ja Behbudiy va Ingeborg Baldauf: Jadidchilik merosining Germaniyadagi talqini**

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) — jadidchilik harakatining asoschilari-

dan biri, zamonaviy o'zbek milliy tafakkurining shakllanishida alohida o'rin tutgan siymodir. Darhaqiqat, bu buyuk siymo to'g'risida bugunga qadar qator maqolalar, kitoblar, monografiyalar chop qilingan, ilmiy dissertatsiyalar yoqlangan. Behbudiyning hayoti va ijodi haqida umumiy ma'lumot berishdan ko'ra, uning xorijda qanday o'rganilgani, olim Ingeborg Baldauf tomonidan qanday talqin qilingani masalasiga alohida e'tibor qaratamiz. U XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Markaziy Osiyo islohotchilari haqida qator fundamental tadqiqotlar olib bordi va bu orqali Yevropada Behbudi merosini ilmiy muomalaga kiritdi.

Baldauf 1991-1992 yillar oralig'ida Amerikaning Indiana universiteti Rokfeller stipendiati bo'lgan chog'larida Behbudiyning "Oyna" jurnalini qisqartirib ingliz tiliga tarjima qilgan [Abdullayeva, 2022; 35]. Ushbu tarjima nafaqat o'zbek jadid matbuotining ilk namunalaridan biri sifatida ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortgan, balki jadidchilik harakatining zamonaviylik, milliy uyg'onish va islohotchilik g'oyalari qanday shakllanganini yevropalik o'quvchiga tushunarli tilda yetkazishga xizmat qilgan. Ingeborg Baldauf o'z izlanishlarida Behbudiyning "Oyna" orqali tarqatgan g'oyalarini jurnalistik nuqtai nazardan emas, balki ularni ijtimoiy jihatdan ham tahlil qiladi. Behbudiyning qarashlari, turkiy xalqlarning uyg'onish jarayonidagi o'rni, ta'lim tizimi haqidagi fikrlarini chuqur tahlil qilib, bu g'oyalarning Markaziy Osiyo modernizatsiya tarixidagi ahamiyatini yoritishga harakat qiladi.

### **Jadidchilik harakatida – ta'lim**

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular zamonaviy fanlar, ilg'or pedagogik metodlar va amaliy fanlarni madrasa tizimiga kiritdilar. Jumladan, rus sharqshunoslari, turkologlar va G'arb olimlari jadidchilikni Sharqda modernizatsiyaning muhim bosqichi sifatida ko'rib chiqqanlar. Jumladan, Adeeb Khalid "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" asarida Markaziy Osiyo jadidlarining ilm-fan, dunyoviy ta'lim, milliy uyg'onish va islohotlar borasidagi qarashlarini chuqur tahlil qiladi, jadidlarga faqat diniy islohotchilar emas, balki zamonaviy fuqarolik jamiyati g'oyalarini ilgari surgan intellektual harakat sifatida qarash bilan birga, jadidchilik harakatining paydo bo'lishiga ta'sir etgan mahalliy va global omillarni alohida ta'kidlaydi. Bu musulmon xalqlarning modernizatsiya jarayonlariga kirib borishini ta'lim sohasidagi yangilanishlar orqali amalga oshganligini ko'rsatadi. Jadidlarning fikricha bu o'zgarishlar faqat diniy-madaniy yangilanish emas, balki milliy o'zlikni anglash va mustaqil fikrlashga asoslangan yangi avlodni tarbiyalash jarayoni edi Bu borada Edward Allworthning asarlari katta ahamiyatga egadir. Uning "The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History" (1990) nomli fundamental tadqiqotida o'zbek xalqining XIV asrdan to bugungacha bo'lgan madaniy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti yoritib berilgan. Asarda jadidchilik harakati Turkiston milliy uyg'onishining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan. Allworth jadidlarni "*heterogenous ... undivided by ethnic or class stratification*" deb ta'riflab, ularni diniy islohotchilar emas, balki turli tabaqalardan bo'lgan, birlashgan intellektual harakat deb ko'radi [Allworth, 1990; 69].

Ularning asosiy maqsadlari — yangi usulda (usuli jadid) maktablar ochish, zamonaviy fan va texnikani joriy qilish, milliy matbuotni rivojlantirish, o'zlikni anglashni kuchaytirish hamda diniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Ayniqsa, xalqning savodxonligini oshirish, ayollarning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish, milliy teatr va adabiyot orqali zamonaviy g'oyalarni yoyish kabi tashabbuslar jadidchilik harakatining ajralmas qismi bo'lgan. Asarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqa ziyolilarning faoliyati tahlil qilinadi. Allworth, Fitrat shaxsiyatini alohida yoritib, uni diniy konservatizmga qarshi chiqqan, zamonaviy islomiy tafakkurni ilgari surgan ilg'or islohotchi sifatida baholaydi [Allworth, 1990]. Allworthning fikricha, jadidchilik harakati Markaziy Osiyoda milliy o'zlik va madaniy uyg'onishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, Turkistonda mustamlakachilik zulmidan ozod etishga yo'naltirilgan, chuqur mafkuraviy va siyosiy jarayon sifatida ko'zga tashlangan. Jadidlar milliylik va diniy yangilanish g'oyalarini uyg'unlashtirgan holda, xalqning milliy o'zligini saqlab qolish va zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishni maqsad qilganlar, shuningdek, o'z tadqiqotida jadidchilik harakatining keyingi taqdiri haqida ham to'xtalib o'tadi. U Sovet hokimiyati davrida ushbu harakat mafkuraviy tahdid sifatida baholanib, uning yetakchilari ta'qib etilganini, ko'pchiligi qatag'on qurboni bo'lganini alohida qayd etadi. Unga ko'ra, "1930-yillar boshlariga kelib, Turkiston jadidchilik harakatining aksariyat yetakchilari yo qamoqqa olingan, yo'q qilingan yoki quvg'in qilingan. Natijada, bu harakat rasmiy ravishda siyosiy sahnadan siqib chiqarildi" (Allworth, 1990]. Mazkur asar xorijiy ilmiy doiralarda jadidchilik harakati borasidagi yondashuvlarni kengaytirgan va uni mahalliy emas, balki global hodisa sifatida ko'rishga imkon bergan muhim manba hisoblanadi. Olimning mazkur mavzuga yondashuvi jadidchilikni mustamlakachilikka qarshi kurash, diniy islohot va milliy uyg'onish kuchlari birligi sifatida talqin qilishi bilan ajralib turadi. Jadidchilik harakatining mustamlakachilikka qarshi kurash, diniy va milliy uyg'onish kuchlarining birligi sifatida baholanishi akademik Naim Karimov o'z tadqiqotida ochib bergan tarixiy haqiqatlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki Naim Karimovning "“Katta qirg'inning” kelib chiqish sabablari va omillari” nomli asarida qayd etilganidek, Sovet davlati Turkiston xalqlarining mustaqil fikr, milliy g'urur va ozodlik istagini eng katta tahdid deb bilgan va aynan shu bois jadidchilik harakatiga alohida e'tibor qaratgan [Karimov, 2013].

Darvoqe, 1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshlarida Sovetlar sistemasidagi maxsus xizmatlar — VChK, GPU, OGPU va keyinchalik NKVD organlari faoliyati tobora kuchaytirilganini N. Karimov ilmiy izlanishlarida aniq tarixiy manbalar va dalillar asosida ko'rsatib bergan edi. Bu jarayon Allworth ta'riflagan "jadidchilikning siyosiy sahnadan siqib chiqarilishi" va uning vakillarining qatag'on qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Olim ta'kidlaganidek, Turkistonda milliy mustaqillik uchun intilgan har qanday harakat — xoh u qurolli "bosmachilik" ko'rinishida, xoh u ilmiy-ma'rifiy jadidchilik shaklida bo'lsin — Sovet tuzumi uchun xavf deb topilgan. Ayniqsa, 1930-yillardan boshlab Sovet tuzumi milliy ong va milliy madaniyatni yo'q qilish siyosatini izchil amalga oshira boshlaydi. NKVD doirasidagi "Sharq bo'limi"

kabi maxsus tuzilmalar hududlarda milliy ruh va mustaqillik g'oyalarini butunlay yo'q qilish uchun faoliyat yuritgan. Bu jadidchilik va uning yetakchilarini yo'q qilish bilan yakun topgan. Allworthning yondashuvida jadidchilik global harakatlar tizimining bir qismi sifatida ko'riladi. Bu Sovet mustamlakachilik siyosatida jadidlarga qarshi ko'rilgan repressiv choralarning ko'lamini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. N. Karimov ta'kidlaganidek, Sovet davlati jadidchilik harakatini oddiy mafkuraviy oqim emas, balki xalqaro darajadagi mustaqillik uchun kurashning muhim bo'lagi sifatida baholagan va uni qattiq nazorat ostiga olgan. Tarixiy hujjat va dalillar asosida ma'lum bo'lishicha, 1930-yillar boshida kelib, Turkistondagi siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarida faol bo'lgan jadidlarning aksariyati qatag'on qilingan. Bu holat Allworth tomonidan qayd etilgan "jadidchilik harakatining siyosiy maydondan siqib chiqarilishi" jarayonining real tarixiy ko'rinishi bo'lib, Karimov asarida bu jarayon aniq faktlar bilan yoritib bergan. Olim qatag'on siyosatining mohiyatini ochib berar ekan, uni faqat siyosiy yoki mafkuraviy raqiblarni yo'q qilish bilan cheklab qo'ymaydi, balki xalq ruhini sindirish, milliy o'zlikni butunlay yo'q qilishga qaratilgan murakkab jarayon sifatida tahlil qiladi. Shu jihatdan ham bu jarayonga Allworth va Karimov yondashuvlari o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Allworth jadidchilikni faqat mahalliy hodisa emas, balki global modernizatsiya va milliy uyg'onish jarayonining bir bo'lagi sifatida talqin qilgan bo'lsa, Naim Karimov Sovet ittifoqi tomonidan olib borilgan siyosat aslida mustamlakachilikning eng keskin bosqichi bo'lganini ko'rsatadi.

Ushbu harakat, diniy ta'limni yangilash, ilm-fan zamonaviy dars usullarini joriy etish va ta'limni davr talablari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Jadidlar xalqni yangilanishga tayyorlash, modern g'oyalarni targ'ib qilish hamda milliy o'zlikni asrash masalalariga e'tibor qaratdilar. Bu harakat natijasida Markaziy Osiyo xalqlari orasida yangi tafakkur va madaniy uyg'onish boshlangan edi. Jadidlar jamiyatni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, texnologik va ilmiy yutuqlardan bahramand bo'lish orqali milliy rivojlanish yo'lida muhim hissa qo'shganlar. O'sha davr ziyolilari tashkil etgan "Chig'atoy gurungi" faoliyati buni yaqqol tasdiqlaydi. Manbalarda qayd etilishicha, mazkur guruh majlislarida yangi imloni o'rganish kurslarini ochish, Qori Ramazon tuzgan o'zbek tilining imlosini o'rganish, o'zbek xalq qo'shiqlarini to'plash, hukumat idoralari oldida o'zbeklarni "o'zbek" deb rasman atash masalasini ko'tarish kabi dolzarb muammolar muhokama qilingan [Karimov, 2011; 43]. Mazkur guruh doirasida Ramziy va Fitrat kabi ziyolilarning ijod namunalari orqali milliy o'zlik, madaniy yuksalish va millat taraqqiyoti g'oyalarini keng targ'ib qilganliklari tarixiy xotiralarda ta'kidlanadi. Fitrat o'zbek milliy madaniyatini barpo etish, uni tiriltirish va mustaqil o'zbek millatini yaratish masalasini kun tartibiga qo'ygan, bosmachilik harakatiga ehtiyotkorlik bilan yondashishni, millatni madaniy jihatdan tarbiyalash, mustaqillik sari intilish zarurligini alohida urg'ulagan. Fitratning fikricha, mustahkam madaniy asosga ega bo'lmagan millat mustaqillik g'oyasini to'liq ro'yobga chiqara olmaydi. O'sha davr voqeliklaridan ma'lumki, majlislarda madaniy o'zbek millatini shakllantirish, din va yangi alifbo uchun kurash zarurligi muhokama qilingan. Shu tariqa, jadidchilik nafaqat ta'limdagi islohotlar, balki milliy o'zlikni

saqlab qolish va mustamlakachilikka qarshi kurashishning samarali shakli sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixshunosligi, adabiyoti hamda jadidchilik harakati bo‘yicha tadqiqotchi yapon olimi Hisao Komatsu nafaqat Yaponiyada, balki xalqaro ilmiy doiralarda ham o‘zbek adabiyoti va madaniyatining faol targ‘ibotchisi, chuqur tadqiqotchisi sifatida tanilgan. U Turkiston mintaqasining XX asr boshlaridagi adabiy-madaniy taraqqiyoti, jadidchilik harakati, bu davr matbuotining o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asosda o‘rganib, muhim asarlar yaratgan. U 2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda “Yaponiyada jadidshunoslik” mavzusidagi ma‘ruzasi bilan ishtirok etgan edi. va o‘z intervyusida shunday degan:- “Ilk bor Abdurauf Fitratning “Munozara” asarini juda ta’sirlanib o‘qiganimdan keyin Fitratning faoliyati hamda boshqa yozgan asarlarini o‘qish va o‘rganishga qiziqishim ortdi. Yaponiyada mendan avval hech bir odam jadidchilik harakati haqida kitob yozmagan. 2018-yilda Yaponiyada jadidlar to‘g‘risida kitobim nashrdan chiqdi. Monografiyamda Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, Munavvar qori kabi jadidchilik namoyondalari xususida ma‘lumot berilgan”[<https://daryo.uz/2023/12/10>]. Olim Yaponiyaning turli universitetlarida Turkiston tarixiga oid so‘rovnomalar o‘tkazib, ma‘lumotlar to‘plagan. Abdurauf Fitratning “Munozara” asari, Buxoro va Qozon shaharlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar, Qo‘qon xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘oloni, Turkiston va Buxoro jadidchilik harakati kabi mavzularni chuqur o‘rganib chiqqan. Taniqli olim va sayyoh Abdurashid Ibrohim faoliyati bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan[“Jadid” gazetas, 20.12.2024]. Hisao Komatsu professor Bahodir Karim bilan bo‘lib o‘tgan suhbatida shunday deydi:-“Abdurashid Ibrohim 1908–1909 yillardagi safarida Turkiston shaharlarini kezib, chor ma‘muriyatini tanqid qiladi. U Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “o‘zbeklarning qahramoni” deb e’tirof etgan va bu haqda Tokioda “Oh, Turkiston!” nomli nutqlarida so‘z yuritgan” [“Jadid” gazetas, 20.12.2024]. U Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘tkazilgan “Jadidlik harakati: talqini va muammolari” mavzusidagi xalqaro anjumanda ishtirok etgan, “Yaponiyada jadidshunoslik” mavzusiga doir ma‘lumotlar taqdim etganligini, Behbudiyning “Oyina” jurnali bibliografiyasi, Fitratning “Munozara” asari, 1922-yili ikkita soni bosilgan “Haqiqat” jurnali va boshqa manbalar to‘g‘risida ma‘ruza qilganligini aytib, Tokioda jadidchilar harakatiga oid xalqaro ilmiy anjumanni Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlamoqchiligini alohida ta’kidlaydi.

## XULOSA

Xulosa shuki, xorijiy ilmiy-tarixiy manbalarda “jadidlar” va “jadidchilik harakati”ning talqini ko‘p qirrali va murakkab jarayon sifatida talqin qilingan. manbalar shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshlarida shakllangan bu harakatning mohiyati faqat diniy-ma’rifiy yangilanish bilan cheklanmay, balki siyosiy, ijtimoiy, madaniy va milliy uyg‘onish jarayonlarini ham o‘z ichiga olgan. Hisao Komatsu (Yaponiya.1996), Adeeb Khalid (AQSH.1998, 2007), Stephane Dudoignon (Fransiya.1997), Ingeborg

Baldauf (Germaniya.2001) singari xorij olimlari bu harakatni Markaziy Osiyo modernizatsiyasining asosiy tayanchi sifatida va ta'lim islohotlari orqali milliy o'zlikni tiklashdagi rolini yuksak baholashgan. Tahlillardan ayonki, xorijiy adabiyotlarda jadidchilik harakati talqinida quyidagi asosiy jihatlar ajralib turadi:

❑ **Modernizatsiya jarayonidagi o'rni** – Jadidchilik G'arbiy modernizmni to'liq qabul qilmagan holda, islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan milliy yangilanish modeli sifatida tasvirlanadi.

❑ **Ta'lim va ma'rifat islohotlari** – Jadidlarning "usuli jadid" maktablari, darsliklar va yangi o'quv metodlari Turkiston ma'rifat tizimini tubdan o'zgartirgan omil sifatida baholanadi [Dudoignon, 1997].

❑ **Siyosiy va milliy uyg'unishdagi o'rni** – Xorijiy tadqiqotlarda jadidlar nafaqat pedagogik, balki milliy siyosiy ong shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi [Komatsu, 1996;].

❑ **Turli yondashuvlarning mavjudligi** – Yevropa, AQSh va Yaponiya-da chop etilgan ilmiy nashrlarda jadidchilik talqinida ijobiy, ba'zan tanqidiy nuqtai nazarlar mavjud bo'lib, ular o'ziga xos ilmiy metodologiya asosida shakllangan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish jadidchilikni bir yoqlama harakat emasligini, uni balki global shakllangan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanini anglatadi. Bu esa, tarixiy manbalarga yangicha qarashni, jadidchilikni faqat milliy yoki diniy harakat emasligini, balki xalqaro doiradagi jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

**Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari** sifatida quyidagi masalalarni alohida ta'kidlash mumkin:

- Xorijiy manbalardagi jadidchilik talqinini mahalliy manbalar bilan qiyosiy aspektida tahlil qilib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
- Jadidchilik harakati haqida Yaponiyada (Hisao Komatsu), Germaniyada (Ingeborg Baldauf), AQShda (Adeeb Khalid), Fransiyadagi (Dudoignon) yaratilgan ilmiy manbalar asosida qayta o'rganish;
- Jadidchilikning hozirgi zamon Islom modernizmi bilan bog'liqlik tomonlarini o'rganish.

Demak, xorijiy tadqiqotlar tahlili jadidchilik harakatini ko'p qirrali, dinamik va global jarayon bilan bog'liq hodisa sifatida qayta baholashga imkon beradi. Bu tarixiy-ilmiy yondashuvni kengaytirish barobarida, Markaziy Osiyo merosini xalqaro miqyosda ilmiy yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'l – Yangi O'zbekiston yo'lidir*. Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaat.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Jadidlar millat yuragida yashamoqda*. Konferensiya nutqi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi PQ-201-sonli Qarori. *Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida*.
4. Abdullayeva, R. (2022). Ingeborg Baldauf — ko'p qirrali qomusiy olim. Zamon va

- zaminlarda toblangan do'stlik: Maqolalar to'plami (bet.39–43). Toshkent.
5. Allworth, E. A. (1990). *The modern Uzbeks: From the fourteenth century to the present: A cultural history*. Stanford University Press.
  6. **Avazov, N. H.** (1995). *Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy merosi (manbalar)* [Nomzodlik dissertatsiyasi, Toshkent].
  7. Ayniy, S. (2010). *Buxoro inqilobining tarixi* (nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo va Sharifa Tosheva). Tokio: Tokio universiteti, Gumanitar va ijtimoiy fanlar oliy maktabi, Islomiy hududiy tadqiqotlar markazi. (Asarning birinchi nashri 1926-yilda chop etilgan)
  8. Ashirov, D. S. (2023). Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'rni va ahamiyati. *Golden Brain*, 1(35), 23–28.
  9. Baldauf, I. (2000). Jadidism in Central Asia within reformism and modernism in the Muslim world. *Die Welt des Islams*, 41(1), 72–88.
  10. Baldauf, I. (2001). *XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
  11. Bazarbayeva, K. K., Gumadullayeva, A., & Rustambekova, M. (2013). Jadidism phenomenon in Central Asia. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 89, 876–881. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.08.948>
  12. Bozorova, G. V., & Umarova, Z. I. (2025). *Jadidchilik harakati va uning Markaziy Osiyo madaniyatidagi o'rni*. *Obrazovanie Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire*, 61(5), 10–16.
  13. Dudoignon, S. A. (1996). Jadidchilik, miraschilik, islomchilik. *Cahiers du Monde Russe*, 37, 12–40.
  14. Jadid gazetasi. (2025, iyul 16). [Behbudiyning Xo'jandlik muhoblari]. <https://jadid.uz>
  15. Jadid gazetasi. (2024, dekabr 20). *Hisao Komatsu bilan suhbat*. <https://jadid.uz>
  16. Karimov, N. (2010). *Mahmudxo'ja Behbudiy*. Toshkent. 80 b.
  17. Karimov, N. (2013). *Katta qirg'inning kelib chiqishi*. Toshkent: Fan. 128 b.
  18. Karimov, N. (2008). *XX asr adabiyoti manzaralari (1-kitob)*. Toshkent: O'zbekiston. 534 b.
  19. Karimov, N. (1991). *Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon*. Toshkent: Fan. 84 b.
  20. Khalid, A. (1998). *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press.
  21. Komatsu, H. (1996). *Inqilobchi O'rta Osiyo: Bir jadidning qiyofasi*. Tokyo: ILCAA.
  22. Komatsu, H. (2023, dekabr 10). Yaponiyada jadidshunoslik: intervyu. *Daryo.uz*.
  23. Lazzarini, E. J. (1992). Beyond renewal: The Jadid response to pressure for change in the modern age. In J. Gross (Ed.), *Muslims in Central Asia: Expressions of identity and change*. Duke University Press.
  24. Louw, M. (2013). *Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia*. Routledge.
  25. **Mirzayeva, Z. I.** (2007). *O'zbek jadid adabiyotining Amerikada o'rganilishi* [Nomzodlik dissertatsiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti].
  26. **Mirzayeva, Z. I.** (2017). *XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi* [Doktorlik dissertatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti].
  27. Muminov, A. (2024). Turkiston ta'lim tizimida jadidlarning o'rni mavzusi bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili. *Zenodo*. <https://zenodo.org/records/11070419>
  28. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik*. Toshkent: Ma'naviyat.
  29. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U., Rizaev, Sh., & Ahmedov, S. (2004). *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
  30. Rahmonov, M. (1968). *O'zbek teatri tarixi: XVIII asrdan XX asr avvaligacha*. Toshkent: Fan.
  31. Ross, D. (2020). *Tatar Empire: Islam, Russia, and the making of modern Muslim subject*. Bloomington: Indiana University Press.
  32. Turdiyev Sh. (2003). Ular Germaniyada o'qigan edilar. Toshkent: "Akadem-xizmat".
  33. **REFERENCES**
  34. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *The path shown by our Jadid ancestors is the path of New Uzbekistan*. Address to participants of the international conference.

35. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *The Jadids live in the heart of the nation*. Conference speech.
36. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 30, 2024, No. PQ-201. *On the establishment of the State Museum of the Jadid Heritage*.
37. Abdullayeva, R. (2022). Ingeborg Baldauf — a versatile encyclopedist. Friendship forged through time and place: A collection of articles (pp.39–43). Tashkent.
38. Allworth, E. A. (1990). *The modern Uzbeks: From the fourteenth century to the present: A cultural history*. Stanford University Press.
39. Avazov, N. H. (1995). *The creative heritage of Mahmudkhoja Behbudi (sources)* [Candidate dissertation, Tashkent].
40. Ayniy, S. (2010). *The history of the Bukhara revolution* (prepared for publication by Shimada Shizuo & Sharifa Tosheva). Tokyo: University of Tokyo, Graduate School of Humanities and Social Sciences, Center for Islamic Area Studies. (The first edition of the work was published in 1926)
41. Ashirov, D. S. (2023). The Jadid movement and its role and significance in the socio-spiritual life of Turkestan. *Golden Brain*, 1(35), 23–28.
42. Baldauf, I. (2000). Jadidism in Central Asia within reformism and modernism in the Muslim world. *Die Welt des Islams*, 41(1), 72–88.
43. Baldauf, I. (2001). *Sketches of 20th century Uzbek literature*. Tashkent: Ma'naviyat Publishing House.
44. Bazarbayeva, K. K., Gumadullayeva, A., & Rustambekova, M. (2013). Jadidism phenomenon in Central Asia. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 89, 876–881. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.08.948>
45. Bozorova, G. V., & Umarova, Z. I. (2025). The Jadid movement and its role in the culture of Central Asia. *Education, Science and Innovative Ideas in the World*, 61(5), 10–16.
46. Dudoignon, S. A. (1996). Jadidism, traditionalism, Islamism. *Cahiers du Monde Russe*, 37, 12–40.
47. Jadid Newspaper. (2025, July 16). [Behbudi's admirers from Khujand]. <https://jadid.uz>
48. Jadid Newspaper. (2024, December 20). Interview with Hisao Komatsu. <https://jadid.uz>
49. Karimov, N. (2010). *Mahmudkhoja Behbudi*. Tashkent. 80 pages.
50. Karimov, N. (2013). *The origins of the Great Repression*. Tashkent: Fan. 128 pages.
51. Karimov, N. (2008). *Panorama of 20th century literature (Vol. 1)*. Tashkent: Uzbekistan. 534 pages.
52. Karimov, N. (1991). *Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon*. Tashkent: Fan. 84 pages.
53. Khalid, A. (1998). *The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press.
54. Komatsu, H. (1996). *Revolutionary Central Asia: The image of a Jadid*. Tokyo: ILCAA.
55. Komatsu, H. (2023, December 10). Jadid studies in Japan: Interview. *Daryo.uz*.
56. Lazzerini, E. J. (1992). Beyond renewal: The Jadid response to pressure for change in the modern age. In J. Gross (Ed.), *Muslims in Central Asia: Expressions of identity and change*. Duke University Press.
57. Louw, M. (2013). *Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia*. Routledge.
58. Mirzayeva, Z. I. (2007). *The study of Uzbek Jadid literature in America* [Candidate dissertation, National University of Uzbekistan].
59. Mirzayeva, Z. I. (2017). *The study of 20th century Uzbek literature in America* [Doctoral dissertation, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan].
60. Muminov, A. (2024). Analysis of local and foreign literature on the topic of the role of Jadids in the educational system of Turkestan. *Zenodo*. <https://zenodo.org/records/11070419>
61. Qosimov, B. (2002). *National awakening: Courage, enlightenment, devotion*. Tashkent: Ma'naviyat.
62. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U., Rizaev, Sh., & Ahmedov, S. (2004). *Uzbek literature of the national awakening period*. Tashkent: Ma'naviyat.

- 
63. Rahmonov, M. (1968). *The history of Uzbek theatre: From the 18th century to the early 20th century*. Tashkent: Fan.
  64. Ross, D. (2020). *Tatar empire: Islam, Russia, and the making of modern Muslim subject*. Bloomington: Indiana University Press.
  65. Turdiyev Sh. (2003). *They studied in Germany*. Tashkent: “Akadem – service”.